

Mehnat muhofazasi bilimdonlari aniqlandi

// 02.05.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mehnat-muhofazasi-bilimdonlari-aniqlandi>



“Dehqonobod kaliy zavodi” AJda “28-aprel-Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni” doirasida “Mehnat muhofazasi bilimdoni” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi.

Tanlovda jamiyat xodimlari o‘zlarining bilim va salohiyatini yana bir bor sinab ko‘rishdi. Qizg‘in o‘tgan bahs yakunlariga ko‘ra:

1-o‘rin- Komiljon Saydqulov, KO‘Ich 1-sexi maydalovchisi;

2-o‘rin- Maryam Norsafarova, Tog‘-kon majmuasi, tog‘-kon bo‘limi texnik hujjatlarni yuritish bo‘yicha texnik;

3-o‘rin- Akmal Yangibayev, Elektrosex katta navbatchi elektromontyori hamda Rustam Jumayev, NO‘A va A sexi NO‘A va A bo‘yicha chilangari egalladi.

G‘oliblar diplom, pul mukofoti hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.



“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Matbuot xizmati